

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDAGI TARIXIY O'RNI

Boqijonova Sarvinozxon Bahromjon qizi
Namangan davlat universiteti, tarix yo'nalishi
E-mail:boqijonova29@gmail.com
Tel:+998773540114

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21428626>

Annotatsiya:Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston jadidchilik harakatidagi o'rni, uning ma'rifatparvarlik faoliyati, milliy ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi qarashlari hamda matbuot, dramaturgiya va milliy uyg'onish jarayoniga qo'shgan hissasi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Behbudiyning ilmiy-ma'rifiy merosi, zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda jadidchilik g'oyalarining milliy taraqqiyotdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudi, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, Turkiston, matbuot, dramaturgiya, ta'lim islohoti, milliy taraqqiyot.

Аннотация:В статье анализируется роль Махмудходжи Бехбуди в джадидском движении Туркестана, его просветительская деятельность, взгляды на реформирование национальной системы образования, а также вклад в развитие периодической печати, драматургии и национального возрождения. На основе исторических источников раскрывается значение научно-просветительского наследия Бехбуди и его влияние на общественно-политическое и культурное развитие Туркестана.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, просветительство, национальное возрождение, Туркестан, образование, новая методика обучения, драматургия, печать, реформы.

Abstract:This article examines the role of Mahmudhoja Behbudi in the Jadid movement of Turkestan, his educational and enlightenment activities, his views on reforming the national education system, and his contribution to journalism, drama, and the national awakening. Based on historical sources, the study highlights Behbudi's intellectual legacy and its significance for the socio-cultural development of Turkestan and the formation of modern national consciousness.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, Jadidism, enlightenment, national awakening, Turkestan, educational reform, new-method schools, journalism, drama, modernization.

KIRISH:XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar jadidchilik harakatining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalardan biri Mahmudxo'ja Behbudi bo'lib, u ma'rifatparvar, pedagog, dramaturg, publitsist va jamoat arbobi sifatida xalqni ilm-ma'rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash g'oyasini ilgari surdi. Behbudi yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy darsliklar yaratish, milliy matbuotni rivojlantirish hamda teatrni ma'rifat vositasiga aylantirish yo'lida katta xizmat qildi. Uning «**Padarkush**» dramasi o'zbek milliy dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri hisoblanadi va jadid teatrining shakllanishida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda Mahmudxo'ja Behbudi ilmiy merosini qayta o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Uning pedagogik, publitsistik va dramaturgik faoliyati nafaqat tarixiy nuqtai nazardan, balki bugungi ta'lim islohotlari, milliy qadriyatlarni asrash va fuqarolik jamiyatini

rivojlantirish jarayonida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois Behbudiy merosini zamonaviy tadqiqot metodlari asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakati, ta'lim hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida XX asrning 70-yillaridan bugung kungacha e'lon gilingan ko'pgina tadqiqotda Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi. Hoji Muin Behbudiyning biografiyasini yozar ekan, uni 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini ta'kidlaydi. Ammo oxirgi olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, Behbudiy tug'ilgan sana va joyi biroz boshqacharoq ko'rsatilmoqda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Olim bu sanani isbot qilish uchun yetarlicha dalil va isbotlarni keltiradi. (1,6-7)

NATIJALAR: Mahmudxo'ja o'n to'qqiz yoshida otasidan yetim qolib, tog'asi Muhammad Siddiqning qo'lida tarbiya ko'rgan. Arab tilini kichik tog'asi Odildan o'rganganligi sababli u o'n sakkiz yoshidan e'tiboran qozixonada mirzalik qila boshladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Mahmudxo'ja dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil ko'rgan. Ayni paytda xususiy mutolaa bilan shug'ullanib, dunyoqarashining kengayishiga erishgan. Shu yillarda u Ismoil G'aspiralining "Tarjimon"i va boshqa taraqqiyparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi gazeta hamda jurnallarni kuzatib borgan. 1899–1900-yillari buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safarida bo'lgan. Behbudiyning sakkiz oylik safari beiz ketmadi. Bir tomondan, jadid gazetalari, ikkinchi tomondan esa Kavkaz, Turkiya va Misrda ko'rgan o'quv muassasalari ta'sirida u 1903-yili Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajab Amin qishloqlariga borib, o'sha yerlik ma'rifat ahli bilan hamkorlikda usuli jadid maktablarini ochdi va ular uchun "**Risolai asbobi savod**" (1904), "**Risolai jug'rofiyayi umroniy**" (1905), "**Risolai jug'rofiyayi Rusiy**" (1905), "**Kitobat ul-atfol**" (1908), "**Amaliyoti islom**" (1908) hamda "**Tarixi islom**" (1909) singari kitoblarni yaratdi. (4,68)

1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Qozon va Ufaga tashrif buyurgan. 1914-yilda Turkiya, Misr va boshqa arab davlatlari bo'ylab sayohat qilgan. M. Behbudiy ham diniy, ham dunyoviy ta'lim olgan. Keng dunyoqarashga va chuqur bilimga ega bo'lgan holda doim konservatizm va johillikka qarshi chiqqan, o'z asarlarida islom dinini to'g'ri tushunish va sharhlashga chaqirgan. (3,253-254)

Behbudiy siyosiy-ijtimoiy qarashlarining shakllanishida sayohat, ayniqsa, katta rol o'ynadi. 1914-yili esa ikkinchi marotaba arab mamlakatlariga sayohat qildi. Agar bu safarning bir qismi Nijniy Novgorodda 1906-yil 23-avgust kuni ochilgan Rossiya musulmonlari qurultoyi, Nijniy Novgorod yarmarkasi paytida bo'lib o'tgan milliy ishlarga doir

majlis tufayli amalga oshgan, binobarin, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi bevosita ma'lum maqsad bilan qilingan sayohatlardir. Ularning har ikkisi ham Behbudiy ijtimoiy qarashlarining shakllanishida chuqur iz qoldirgani shubhasiz. (4,68)

MUHOKAMA: Behbudiy 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oldi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tangislik tufayli nashr to'xtadi. 1913- yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o'zbekcha bo'lib, she'r, turli yo' nailsh va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib borgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi"ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka qurultoyida hayajonli nutq so'zlad. (1,13-20)

Behbudiy Turkiston uchun turkiy til bilan bir qatorda forsiy tilning "o'rta sheva" sini ilgari surdi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1914–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan nashr qilingan "Oyina" jurnalini ko'rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o'z o'quvchilari bilan hamfikir va hammaslak ekanligini bildirish hamda ko'rsatish deb baholaydi. Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy "Oyina" ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili "Tarjimon" gazetasiga yo'llagan maqolasida ko'targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tillarning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi va ikkala tilning ham maktab ta'limiga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi. (2,13)

U boshqa jadid nashrlarini ham qo'llab-quvvatlagan hamda **"Sadoi Turkiston"**, **"Sadoi Farg'ona"**, **"Xurshid"** va boshqa gazetalar bilan hamkorlik qilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy yangi usul maktablariga dastlab asos solganlardan va ularni targ'ib qilganlardan biri, o'qituvchi va o'quvchilar uchun darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari muallifi hisoblanadi. M. Behbudiy ma'rifatparvarlik harakatidan ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga yetgan jadidchilik yetakchisi sifatida **1917-yil Fevral inqilobi** va **Oktyabr to'ntarishi** oqibatida bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelganidan keyin Turkiston tub aholisining o'z huquqlari uchun kurashi g'oyalarini ilgari surgan, Turkistonning muxtor maqomi masalasini ko'tarib chiqqan. Uning **"Haq olinur, berilmas!"** degan so'zlari jadidlar uchun shiorga aylangan. Uning siyosiy faoliyatining cho'qqisi Musulmon deputatlari o'lka sovetining a'zosi, **"Hurriyat"** gazetasi tahririyati a'zosi, to'rtta O'lka musulmonlari syezdining ishtirokchisi bo'lgan **1917-yil bahoriga** to'g'ri keladi. Samarqandda dastlabki siyosiy tashkilotlarning vujudga kelishi ham M. Behbudiy nomi bilan bog'liq. (3,255)

Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ish chi va soldat deputatlari sovelarining birinchi o'lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarganddan "o'z ixtiyorlari ilan" borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu hagda "Buxoro voqealari vadafi tuhmat" ("Hurriyat" gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus magola yozgan edi. Shu yil 26-noyabrda Qo' qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. Behbudiy shu qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. "27-noyabrda Qo' qonda Turkiston

muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" - deb yozgan edi Behbudiy.(1,22-23)

Muxtoriyat tugatilganidan so'ng Mahmudxo'ja Behbudiy faol siyosatdan chekinib, Samarqand ta'lim bo'limi mudiri lavozimida ishladi. Biroq bu uning Vatan milliy mustaqilligi haqidagi orzularidan voz kechganini anglatmas edi. Aksincha, u Turkistonning ozodligi va taraqqiyoti yo'lida kurashni davom ettirdi. Sovet hokimiyati ziyolilarga nisbatan noqonuniy ta'qib va qatag'onlarni kuchaytirgan bir paytda Behbudiy Turkistondan tashqariga chiqib, mamlakatdagi siyosiy vaziyat va zo'rvonliklar haqida jahon jamoatchiligini xabardor qilishni rejalashtirdi. Ammo bu niyatini amalga oshirishga ulgurmay, 1919-yil bahorida Buxoro amirining buyrug'i bilan hibsga olindi. Keyinchalik u Qarshi shahrida qatl etildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning qabri qayerda ekani hozirgacha aniq ma'lum emas. Shu sababli uning dafn etilgan joyi tarixning ochilmagan sirlaridan biri bo'lib qolmoqda.(3,256)

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi sifatida milliy ma'rifat, matbuot va teatr taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi. U **1906-yildan** boshlab «**Taraqqiy**», «**Xurshid**», «**Sadoyi Turkiston**», «**Sadoyi Farg'ona**» kabi jadid nashrlarida faol ishtirok etdi, **1913-yilda «Samarqand» gazetasi** va «**Oyina**» **jurnaliga** asos soldi. Behbudiyning «**Padarkush**» dramasi 1914-yilda sahnalashtirilib, Turkiston milliy teatrining shakllanishiga muhim turtki berdi. Shuningdek, u yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va kutubxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali xalq ma'rifatini yuksaltirishga xizmat qildi. 1917-yilda Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlab, milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surdi, 1919-yilda esa Buxoro amiri buyrug'i bilan Qarshi shahrida qatl etildi. Behbudiyning ma'rifiy, publitsistik va dramaturgik merosi bugungi kunda ham O'zbekiston tarixida milliy uyg'onish jarayonini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdirashidov Z. *Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
2. Абдирашидов З. *Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг «Ойина» журнали*. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2019. – 164 б.
3. Алимова Д. *Жадидчилик феномени*. – Тошкент: «Akademnashr», 2022. – 276 б.
4. Шарипов Р. *Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан*. – Тошкент: «Ўқитувчи», 2002. – 175 б